


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

60412500–Marketing (sport marketingi)
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari



ISHLAB CHIQLILGAN VA KIRITILGAN:

- O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv–uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil “24” 08 dagi 4 -sonli yig‘ilishida ma’qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil “25” 08 dagi 365-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’limi standartlari. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy–uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60412500–Marketing (sport marketingi)</i> bakalavriat ta’lim yo’nalishining umumiy tasnifi.....	4
1.1.	Qo’llanish sohasi.....	4
1.1.1.	<i>60412500–Marketing (sport marketingi)</i> ta’lim yo’nalishining Malaka talabning qo’llanishi.....	4
1.1.2	Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60412500–Marketing (sport marketingi)</i> ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1	<i>60412500–Marketing (sport marketingi)</i> ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2	<i>60412500–Marketing (sport marketingi)</i> ta’lim yo’nalishi yo’nalishlari bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari.....	5
1.2.3.	<i>60412500–Marketing (sport marketingi)</i> ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	<i>60412500–Marketing (sport marketingi)</i> ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>60412500–Marketing (sport marketingi)</i> ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo’yiladigan talablar.....	8
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	8
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	9
	Bibliografik ma’lumotlar.....	10
	Kelishuv varag’i.....	11

1. 60412500–Marketing (sport marketingi) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tasnifi

60412500–Marketing (sport marketingi) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit–modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

1.1.Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 60412500–Marketing (sport marketingi) ta’lim yo‘nalishining Malaka talabning qo‘llanishi.

Malaka talabi *60412500–Marketing (sport marketingi)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2.Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:

–mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor – o‘qituvchilari;

– ta’lim yo‘nalishining o‘quv reja va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

– bakalavriat bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

– ta’lim boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

– oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60412500–Marketing (sport marketingi) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlari tavsifi.

1.2.1. 60412500–Marketing (sport marketingi) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60412500–Marketing (sport marketingi) - “Biznes va boshqaruv” ta’lim sohasiga oid yo‘nalish bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi va uning boshqarmalari, sport klublari, O‘zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo‘mitasi va uning tegishli bo‘limlari, sport federatsiyalari va assotsiyatsiyalari,

sport tashkilotlari va “Sport” erkin iqtisodiy zonalarining sport mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarida marketing faoliyatini tashkil etish, boshkarish. rejalashtirish. nazorat kilish. marketing kompleksi, marketing–miks. bozorni segmentlash va pozitsiyalashtirish, marketing tadqiqotlari o‘tkazish, iste’molchilar xulk–agvorini urganish, korxonalarining marketing strategiyasini ishlab chikish. tovar, narx, sotish. siljitish, yangi tovarlarni bozorga kiritish. korxonalarni tashki bozorlarga chikish usullari, turli mulkchilik shaklidagi korxonona va tashkilotlarda marketing faoliyatini rivojlantirish istiqbolini belgilash bilan bog‘lik kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60412500–Marketing (sport marketingi) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari:

- O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi tizimi tashkilotlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo‘mitasi va uning tegishli bo‘limlari;
- sport federatsiyalari va assotsiyatsiyalari;
- jismoniy tarbiya–sport jamoat birlashmalari tizimi;
- sport tashkilotlari va korxonalarining boshqaruv tizimlari;
- sport jamoalari, klublarining boshqaruv tizimi;
- sport mahsulotlari ishlab chiqaruvchi konxonalar;
- sport bilan professional tarzda shug‘ullanuvchilarning o‘quv–mashg‘ulot jarayonlari;
- boshqaruvda vaziyatli va tizimli yondoshuv tamoiyillarini tatbiq etish, davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;
- sport tashkilot va korxonalarida zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samardorligini oshirish, mehnatni rag‘batlantirish jarayonlari.

1.2.3. 60412500–Marketing (sport marketingi) ta’lim yo‘nalishibo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- tashkiliy–boshqaruv faoliyatida;
- ishlab chiqarish faoliyatida;
- axborot tahliliy faoliyatida;
- ilmiy–tadqiqot faoliyatida;
- loyihaviy–konstruktorlik faoliyatida;
- tadbirkorlik va shu kabilarni o‘z ichiga oladi.

1.2.4. 60412500–Marketing (sport marketingi) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari:

60412500–Marketing (sport marketingi) ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6–malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob’ektlari va turlariga muvofiq bakalariat bitiruvchisi quyidagi kasbiy

vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Tashkiliy–boshqaruv faoliyatida (sport marketolog, iqtisodchi marketolog):

– jismoniy tarbiya va sport sohasi faoliyati sifatini marketing boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq etish;

– ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

– zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va mahsulot (xizmat) sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

– jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari va korxonalarida zamonaviy marketing tizimini tashkil etish;

– ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarini rivojlantirish bo'yicha marketing rejasini ishlab chiqish;

– tovarlar va xizmatlar bozorida marketing faoliyatini tashkil etish;

– sport korxonalarida marketing nazorati va auditini tashkil etish;

– tashkilot va korxonaning marketing xizmatida mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

– marketingli faoliyatda vaziyatli va tizimli yondoshuv tamoyillarini tatbiq etish;

– ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatini rivojlantirishga marketing tamoyillarini tatbiq etish;

– tovarlar va xizmatlar bozorida reklama faoliyatini tashkil etish;

– sport korxonalarida menejer va marketolog faoliyatini oqilona tashkil etish;

– sport tashkilotlari va korxonalarining yuqori raqobatbardoshligini ta'minlash;

– sport tashkilot va korxonalarida ishlab chiqarish va tovar (xizmat)lar diversifikatsiyasini amalga oshirish;

– sport korxonalarida marketing faoliyatini samarali boshqarish chora–tadbirlarini ishlab chiqish;

– tovarlar va xizmatlar bozorida marketing faoliyatining samaradorligini oshirish.

– marketing tadqiqotlari yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

– ishlab chiqarish jarayonlarida marketing faoliyatini boshqarish;

– muammoli va tavakkalchilik sharoitlarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish;

– korxonalar ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

– bajarayotgan faoliyati bo'yicha marketing rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

– ishlab chiqarish jarayonlarining atrof–muhit muhofazasi, yongin, texnika va mexnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Mazkur ta‘lim yo‘nalishi bitiruvchilariga quyidagi kvalifikatsiyalar beriladi:

- sport marketologi;
- iqtisodchi marketolog.

Ishlab chiqarish faoliyatida:

–sport korxonalarining marketing faoliyati bo‘yicha ishlarini rejalashtirish va bajarish;

–ishlab chiqarish korxonalarida marketing va marketingni xizmatini tashkil etish;

–yangi tovar ishlab chikarish va xizmat kursagishning namunaviy texnologik jarayonlarini ishlab chikish va kullash:

–ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

–ishlab chiqarish korxonalarida marketingtamoyillarini qo‘llash;

–bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiq qilish;

–amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini qo‘llash;

–ishlab chiqarish korxonalarini rivojlantirishning marketing strategiyalarini ishlab chiqish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Ilmiy tadqiqot faoliyatida:

– jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida marketing va marketing faoliyatini tashkil etish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

–innovatsiyalar bozorining marketing tadqiqotlarini o‘tkazish;

–marketing sohasiga tegishli mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan–texnika yutuqlarini, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy–texnik axborotlarni o‘rganish;

–mavzu bo‘yichajtimoiy va iktisodiy axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

–internet tarmog‘idan eng yangi ilmiy–texnik yutuqlar haqidagi ma‘lumotlarni to‘plash va tahlil qilish;

–ilmiy–tadqiqot natijalarini amaliyotga qo‘llash jarayonlarida qatnashish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Axborot–tahliliy faoliyatida:

– marketing boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil

qilish;

– qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

– tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;

– loyihalar samaradorligini baholash;

– axborot–tahlil faoliyati bo'yicha hisobot tayyorlash;

– marketing boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

Loyiha–konstruktorlik faoliyatida:

– jismoniy tarbiya va sportmarketingni loyihalashtirish usullari;

– loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

– jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari va korxonalarida marketing tadqiqotlarini o'tkazish;

– jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari va korxonalarining biznes–rejasini ishlab chiqish;

– jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari va korxonalarini faoliyatini tahlil qilish;

– jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari va korxonalarida marketing boshqaruvining tashkiliy tuzilmasini loyihalashtirish;

– tarkibiy bo'limlar haqidagi nizomlar va lavozim yo'riqnomalarini ishlab chiqish *qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.*

2. 60412500–Marketing (sport marketingi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

– fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

– dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga olib bilishi;

– xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

– axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

– tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;

– yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

– sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tassavvur hamda e‘tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish o‘quvi va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar

– jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari va korxonalarida zamonaviy marketing tizimini tashkil etish;

– ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalarini rivojlantirish bo‘yicha marketing rejasini ishlab chiqish;

– tashkilot va korxonaning marketing xizmatida mehnatni rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish;

– marketingli faoliyatda vaziyatli va tizimli yondoshuv tamoyillarini tatbiq etish;

– ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalarini faoliyatini rivojlantirishga marketing tamoyillarini tatbiq, etish;

– tovarlar va xizmatlar bozorida reklama faoliyatini tashkil etish;

– korxonada menejer va marketolog faoliyatini oqilona tashkil etish;

– tashkilot va korxonalarining yuqori raqobatbardoshligini ta‘minlash;

– tashkilot va korxonalarda ishlab chiqarish va tovar (xizmat)lar diversifikatsiyasini amalga oshirish;

– korxonada marketing faoliyatini samarali boshqarish chora–tadbirlarini ishlab chiqish;

– tovarlar va xizmatlar bozorida marketing faoliyatining samaradorligini oshirish.

– tashkilot va korxonaning marketing xizmatida mehnatni rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish;

– marketingli faoliyatda vaziyatli va tizimli yondoshuv tamoyillarini tatbiq etish;

– jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ishlarini rejalashtirish va bajarish;

– jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida marketingni tashkil etish;

– xizmat ko‘rsatishni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan jarayonlarni va resurslarni rejalashtirish;

– jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida marketing tamoyillarini qo‘llash qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv rejasi va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, ta'lim jarayoni, menejment konsepsiyasi, sport marketingi, sport menejmenti, menejer, marketolog, marketing tadqiqotlari, segmentlash, jismoniy tarbiya va sport iqtisodiyoti, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayoni, tadbirkorlik, raqobatbardoshlik.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLDI:

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Rektor _____ **M. Boltabayev**
2022-yil _____

M.O'.

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni
tatbiq etish markazi

Direktor v.b. _____ **M. Esonov**
2022-yil _____
M.O.

O'zbekiston Respublikasi
Turizm va sport vazirligi

Vazir o'rinbosari _____ **A. Akkulov**
2022-yil _____
M.O.

O'zbekiston Milliy
Olimpiya Qo'mitasi

Raisning birinchi
o'rinbosari _____ **R. Irmatov**
2022-yil _____
M.O.

Respublika Olimpiya
zahiralari kolleji

Direktor _____ **A. Mamadaliyev**
2022-yil _____
M.O.